HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLUKAT BRENDA-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizozulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	1804
Холикова Сабохат Абдукарим кизи	
IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	1809
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	1812
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1818
Hamroeva Zuhra Amiral qizi	
ОСНОВНЫЕ ДРАЙВЕРЫ ИННОВАЦИОННОГО РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	1824
Самадкулов Мухаммаджон	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHILAR FAOLIYATIGA JORIY ETILISH YO'NALISHLARI.....	1828
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI: O'ZBEKISTON AGRAR SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI VA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA INTEGRATSIYA MASALALARI.....	1833
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



EKOMARKETING: BOZOR TALABINING YANGI YO'NALISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.....	1838
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	1844
Jabborov Bahridin Rashidovich	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	1849
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1854
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
ВКЛАД ОБЪЕКТОВ НАСЛЕДЯ В ТУРИСТИЧЕСКИЕ ПОТОКИ И ЭКОНОМИКУ ГОРОДОВ.....	1859
Азизова Назира Тохтаевна	
ОПТИМИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1863
Минутдинова Лилия Тагировна	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ И СПЕЦИФИКА БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЭКОНОМИКУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1868
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	1872
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1879
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Хумоюн Бобир ўғли	
EKSPORT SALONIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	1887
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1894
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING MONITORING MECHANISMS FOR ASSESSING THE LEVEL OF FINANCIAL INCLUSION BASED ON AN INFORMATION SYSTEM.....	1899
Adashaliyev Bakhtiyorjon Valisher o'g'li	
ISLOM BANKLARI ORQALI IJTIMOY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MODELI	1905
Voxidov Oybek Roziqovich	
УПУЩЕННЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ПОТЕНЦИАЛ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	1909
Алиева Эльнара Аметовна	
QISHLOQ JOYLARI AHOLISI BANDLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YO'LLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1916
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH	1921
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
WAYS TO IMPROVE THE PERFORMANCE OF INVESTMENT FUNDS	1924
Khoshimov Jakhongir Ravshanbek ugli	
RAQAMLI HIKOYALASH ORQALI YASHIL QURILISH MATERIALLARI UCHUN EKO-MARKETING QAROR TUZILMALARI.....	1929
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA FAOLIYAT YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MARKETING, LOGISTIKA VA SOTISH TIZIMINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1939
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
KORXONALAR TOMONIDAN INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH HAMDA ULARNING SAMARALI FOYDALANILISHINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	1954
Isakova Naima Ikromjonovna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING XALQARO ASOSLARI.....	1960
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI.....	1966
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
ELEKTR ENERGIYANI SOTUVCHI KORXONALARDA ENERGIYA YO'QOTISHLARINI HISOBGA OLISH	1972
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
O'ZBEKISTON AGRAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA PAST BALANDLIK IQTISODIYOTI.....	1977
Kadirov Shuxrat Munavvarovich	
BANK XODIMLARI FAOLIYATINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINING MENEJMENT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1986
Jamolov Alovuddin Jaloliddin o'g'li	
ФАКТОРЫ И ФОРМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИННОВАЦИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ОСОБЕННОСТИ И ТИПЫ.....	1992
Бекбосынов Айдос Куралбаевич	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕРСОНАЛА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	1997
Нуриддинова Холисахон Равшан кизи	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YECHIMLAR VA MAQSADLI DASTURLARI	2006
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2013
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
ICHKI MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2018
Hakimov Nodir Nazarovich	
SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	2023
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI, KUTILAYOTGAN KREDIT YO'QOTISHLARI VA BANK RISKLARI AUDITINING KOMPLEKS MODELLARI.....	2027
Xayrullayev O'tkir Ismailovich	
KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVINING SOLIQ TIZIMIDAGI AHAMIYATI	2032
Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich	
ENHANCING HUMAN CAPITAL POTENTIAL IN THE REGION: EVIDENCE FROM KHOREZM REGION.....	2037
Sobirov Yuldoshboy Ruzimboyevich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI	2044
Masharipova Manzura Alimbayevna	
UY-JOY FONDINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	2052
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	



UY-JOY FONDINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Mamanazarov Oybek Shomurodovich

Renessans universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrası professori,

Email: maxmur77@mail.ru

Orcid: 0009-0004-8221-8894

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p kvartirali uy-joy fondini samarali boshqarish bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar, xususan, Germaniya, Finlyandiya, Singapur kabi davlatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqotda boshqaruv kompaniyalari faoliyati, kapital ta'mirlash jamg'armalarini shakllantirish hamda o'zini o'zi moliyalashtirish mexanizmlari qiyosiy o'rganilgan. Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan huquqiy, institutsional va raqamli boshqaruv usullarini O'zbekiston milliy sharoitiga moslashtirish, shu jumladan sohani barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tizimda mulkdorlar mas'uliyatini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy fondi, kondominium, boshqaruvchi kompaniyalar, uy-joy kooperativlari, kapital ta'mir, sindikatlar, aksiyadorlik jamiyatlari.

Abstract. This article analyzes the advanced practices of foreign countries, particularly Germany, Finland, and Singapore, in effective multi-apartment housing stock management. The activities of management companies, the formation of capital repair funds, and self-financing mechanisms are comparatively studied. It explores the possibilities of adapting legal, institutional, and digital management methods widely used in international practice to the national conditions of Uzbekistan. Additionally, scientific and practical proposals are developed to increase property owners' responsibility, improve service quality, and modernize infrastructure.

Key words: housing stock, condominium, management companies, housing cooperatives, capital repair, syndicates, apartment joint-stock companies.

Аннотация. В данной статье анализируется передовой опыт развитых зарубежных стран, таких как Германия, Финляндия и Сингапур, по эффективному управлению многоквартирным жилищным фондом. Сравнительно изучены деятельность управляющих компаний, механизмы формирования фондов капитального ремонта и системы самофинансирования. Раскрыты возможности адаптации широко применяемых в международной практике правовых, институциональных и цифровых методов управления к национальным условиям Узбекистана. Также разработаны научно-практические предложения по повышению ответственности собственников, улучшению качества обслуживания и модернизации инфраструктуры в данной сфере.

Ключевые слова: жилищный фонд, кондоминиум, управляющие компании, жилищные кооперативы, капитальный ремонт, синдикаты, квартирные акционерные общества.

KIRISH

Urbanizatsiya jarayonlari jadallashayotgan hozirgi sharoitda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush sifati va farovonligini belgilovchi muhim omillardan biri – aholining munosib va qulay uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasidir. Shahar aholisi sonining ortib borishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi hamda turar joylarga bo'lgan talabning oshishi uy-joy fondidan samarali foydalanish va uni oqilona boshqarish masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Aholining o'z uy-joyiga ega bo'lishi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki demografik jarayonlar, oilaviy farovonlik, mehnat faolligi va yashash madaniyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksincha esa, urbanizatsiya sharoitida uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi hamda infratuzilma ob'ektlarining holati aholining turmush sifatiga va hududiy boshqaruv organlari faoliyatiga beriladigan bahoga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



Toza ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz, transport va ta'lim muassasalarining barqaror ishlashi qulay yashash muhitini yaratishning ajralmas qismidir. Ushbu yo'nalishlardagi ta'minotning uzluksizligi aholining yashash sharoitidan qoniqishini belgilaydi.

Uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarish va tartibga solish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Hozirgi kunda boshqaruv kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish, tarmoqda tadbirkorlik muhitini kengaytirish hamda uni o'zini o'zi moliyalashtirish mexanizmlariga o'tkazish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar tizimini tartibga solish hamda xizmatlar narxini bozor tamoyillari asosida shakllantirish yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Sohaning huquqiy bazasini, jumladan, boshqaruv tashkilotlarini tuzish tartiblari va turar-joylarga tutash yer maydonlariga doir mulkiy munosabatlarni aniqlashtirish ishlari davom etmoqda. Ushbu tashkiliy-iqtisodiy choralar uy-joy fondini boshqarish modelini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, joriy etilayotgan islohotlarning natijadorligi bevosita siz — mulkdorlarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokingizga bog'liq. Siz o'z uyingizga oid qarorlarni qabul qilish va nazorat tadbirlarida qanchalik faol qatnashsangiz, xizmat ko'rsatish tizimi shunchalik barqaror va samarali ishlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

MDH davlatlaridan Qozoqistonda urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish masalalari bilan Bekenova, Korniyakov, Dyarka (2022), Djaksilikova (2020) kabi qozoq olimlari tomonidan o'rganilgan. Belarusiyada urbanizatsiyaning rivojlanishini Krasovskiy (2002), xorijiy mamlakatlardan Polshada G.Vlavowicz (2016), Koreyada – Joo Cho Cheol (2002)lar shug'ullanishgan. Aleksandrova (2017) o'z ishlarida shahar makonining sanoat o'tmishidan madaniyat va turizm markaziga aylanishini ko'rib chiqqan. Pogudina (2011) Xitoydagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan, Xitoyda aholi turmush darajasini shakllantirish va yuksaltirish muammolarini esa Naumov (1993) tadqiq etgan. Yaponiyaning shaharsozlikni rivojlantirish tizimi tahlilini Osada (2003) olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalarga kelish uchun bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi. Uy-joy fondini boshqarishdagi murakkab jarayonlarni qismlarga ajratib o'rganish va ularni umumlashtirish maqsadida analiz va sintez usullari qo'llanildi. Xorijiy davlatlarning aniq tajribalaridan umumiy xulosalar chiqarish hamda nazariy qoidalarni milliy sharoitga tatbiq etish uchun induksiya va deduksiya mantiqiy yondashuvlari tanlandi. Rivojlangan mamlakatlar va O'zbekistondagi boshqaruv tizimlarini o'zaro solishtirishda qiyosiy tahlil asosiy o'rinni egalladi. Tadqiqot davomida muammolarni xolis baholash va amaliy yechimlar ishlab chiqishda ekspertlar xulosalaridan ham keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda uy-joy fondini boshqarish sohasini davlat tomonidan isloh qilish, boshqaruvni shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga moslashtirish yo'lida xalqaro tajriba, usul va mezonlarni o'rganib, ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Bu jarayonda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, issiqlik, elektr energiyasi va ichimlik suvi bilan ta'minlash xizmatlarini yuqori darajada yo'lga qo'yish, aholining madaniy hordiqini qo'llab-quvvatlaydigan atrof-muhit infratuzilmasini yaratish, turar-joylarni joriy hamda kapital ta'mirdan o'tkazish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun alohida kommunal me'yorlarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda uy-joy fondini boshqarishning tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish zarur.

Olib borilgan izlanishlarning natijalariga ko'ra, uy-joy fondini boshqarish sohasida ijobiy natijalarga erishgan davlatlardan biri – Germaniya hisoblanib, bu yerda uy-joy fondlarining barchasi amalda professional Boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan boshqariladi.


Boshqaruvchi kompaniyalar asosan menejment mutaxassislaridan tuzilib, zarur ishlarni shartnoma asosida ixtisoslashgan tashkilotlar va xususiy tadbirkorlarga topshiradi. Uy-joy mulkdorlari birlashmasi (UJB) boshqaruvchini faqat asosli sabablar mavjud bo'lganda almashtirishi mumkin. Yangi qurilgan uylarda esa quruvchi umumiy mulk boshqaruvchisini 3 yil muddatga tayinlaydi. UJBlar faoliyatini mustahkamlash va quruvchi bilan boshqaruvchi o'rtasidagi ehtimoliy til birlashtirishning oldini olish maqsadida dastlabki boshqaruv davri 5 yildan 3 yilga qisqartirilgan; 3 yildan so'ng UJB boshqaruvchini o'zgartirish huquqiga ega. Kvartiraga mulk huquqini olgan shaxslar avtomatik tarzda UJB a'zolariga kiradi. Germaniyada uy-joy fondini boshqarish jarayonining asosiy ishtirokchilari: boshqaruv kompaniyasi, uy egasi, ijarachi va uy ustasi (1-rasm).

Ta'kidlash joizki, Germaniyada bunday korxonalarga rahbarlik qiluvchi shaxslar oliy ma'lumotli iqtisodchi, muhandis, yuridik mutaxassis yoki ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha malakaga ega bo'lishi shart. Shu bilan



birga, ular xushmuomalalik, muzokara olib borish hamda nizolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari ham talab etiladi.

Vengriyada esa "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, faqat maxsus professional tayyorgarlikdan o'tgan shaxslargina kondominium boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.



1-rasm. Germaniyada uy-joy fondini boshqarishdagi ishtirokchilar.

1999 yildan e'tiboran bu yerda "kondominium boshqaruvchisi" va "mulk boshqaruvchisi" yo'nalishlari bo'yicha kurslar davlat lisenziyasi asosida tashkil etilib, Vengriya Ichki ishlar vazirligi tasdiqlagan tartibga binoan o'qitiladi. Dasturlar ma'ruza va maslahat mashg'ulotlari, amaliy topshiriqlar, kurs va diplom ishlari hamda yakuniy og'zaki va yozma imtihonlardan iborat.

Xususan, "kondominium boshqaruvchisi" dasturi 200 o'quv soatini (shundan 8 kuni ma'ruzalar) qamrab olsa, "mulk boshqaruvchisi" kursi 500 o'quv soatini (shundan 20 kuni ma'ruzalar) o'z ichiga oladi. "Mulk boshqaruvchisi" dasturi "kondominium boshqaruvchisi" mazmunini to'liq qamrab olib, uni kengaytiradi:

u nafaqat turar va noturar joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruviga oid masalalarni, balki mulkchilik shakli va boshqaruv usulidan qat'i nazar, mulkka doir barcha yo'nalishlarni qamrab oladi. Bunda mulk bilan bog'liq investitsion loyihalarni boshqarish, mulkni baholash, daromadlilikni aniqlash va kompleks boshqaruv rejalari ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu borada Polsha tajribasi shuni ko'rsatadiki, unda sobiq sotsialistik lager davlatlari orasida birinchilardan bo'lib uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarish sohasida 100 foizli davlat yoki shahar kapitali asosida aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Kommunal xizmatlarning barcha turlari iqtisodiy va texnik jarayonlarni amalga oshiradigan yagona kompaniyaga birlashtirilgan. Polshaning bu borada o'z oldiga qo'ygan eng asosiy vazifalariga barcha ob'ektlarning ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlash va sifatli xizmat ko'rsatishni kiritish mumkin.

Shvetsiya – bu kondominium sifatidagi uy-joy shakli mavjud bo'lmagan ayrim mamlakatlardan biri. Ushbu mamlakatning o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu 40 foiz atrofidagi uy-joylar – bu ijaradagi uy-joy fondi, taxminan ushbu foizning yarmi munisipal uy-joylar. Shveysiyada kvartira yollovchilar assosiasiyasi keng rivojlangan. Ular hududiy va mahalliy darajalarda o'z shtab-kvartirasiga, bo'linmasiga ega. Bunday ba'zi bir assosiasiyalarning soni yuz minglab bo'lib, ularning fikrlari bilan hukumatning hisoblashishiga to'g'ri keladi. Ular taqdim etilayotgan kom- munal xizmatlari sifati va narxini kuzatishadi, hukumat bilan muloqotlar olib borishadi. Shuningdek, Shveysiyada qiziqarli hodisa - bu uy-joy sudining mavjudligi hisoblanadi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi tashkilotlarga oddiy yashovchilar tomonidan bo'ladigan e'tirozlar odatiy holat hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlarda – masalan, AQSh, Kanada, Meksika, Fransiya, Niderlandiya, Slovakiya, Chexiya, Singapur va Malayziyada – uy-joy fondini boshqarish alohida tadbirkorlik faoliyati sifatida talqin etiladi. Bunda boshqaruvchi kompaniyalar uy-joy mulkdorlari uyushmalari bilan tuzilgan shartnoma asosida xizmat ko'rsatib, daromad oladilar. Shuning uchun ular bevosita har bir mulkdor oldida emas, balki shartnoma tuzgan uyushma oldida javobgar bo'ladi. Moliyaviy resurslarni boshqarish hamda tovar va xizmatlarga to'lovlar bo'yicha qarorlar boshqaruvchilar tomonidan emas, uyushma rahbariyati tomonidan qabul qilinadi; boshqaruvchilarning takliflari esa uyushma kengashi uchun tavsiya maqomiga ega. Xorijiy mamlakatlarda sifatli uy-joy va kommunal xizmatlardan foydalanish maqsadida uy-joy mulkdorlari ko'chmas mulk egalari yoki paydorlarni birlashtiruvchi notijorat iste'molchi birlashmalariga uyushadilar.

Bunday tashkilotlar ko'chmas mulk majmuasini boshqarish, uning barqaror ishlashini ta'minlash hamda mulkdan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish jarayonlarini yo'lga qo'yish uchun tuziladi. Uy-joy mulkdorlari uyushmasi (UJMU) turli yuridik ko'rinishdagi uy-joy kooperatsiyalarini qamrab oluvchi umumiy tushunchaga aylangan: masalan, AQSh va Kanadada hududiy hamjamiyatlar (Planning Unit Developments —



PUD), kondominium uyushmalari (Condominium Association), uy-joy kooperativlari (Housing Cooperatives); Fransiyada — sindikatlar; Finlyandiyada — kvartira aksiyadorlik jamiyatlari; Ukrainada — ko'p kvartirali uylardagi hammulkdorlar uyushmalari; Rossiyada esa — uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy-qurilish kooperativlari. Vengriya va Chexiyada qonun bo'yicha kvartiralarni xususiyashtirishga faqat uyda ko'p kvartirali uyni boshqarish va saqlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan kondominium uyushmasi tashkil etilgan taqdirdagina ruxsat berilgan. Bu uy-joy fondini professional boshqarish bo'yicha xususiy institutning rivojlanishi va shakllanishiga turtki bo'ldi.

Xorijiy tajriba bizni ko'p kvartirali uylarni boshqarish sohasidagi eng ilg'or bilimlar bilan tanishtiradi. Chet el va Rossiyadagi hokimiyat organlari tomonidan ko'p kvartirali uylarni boshqarishga yondashuvlarning turlicha ekanligi munitsipalitetlarimizni boshqa mamlakatlarning sinovdan o'tgan ko'p yillik tajribasini joriy etishga undamoqda.

Ilmiy manbalarga ko'ra, ko'plab xorijiy davlatlarda, hususan, Fransiya, Niderlandiya, AQSh, Kanada, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Meksika, Singapur, Malayziyada uy-joy-kommunal xo'jaligini boshqarish mustaqil tadbirkorlik yo'nalishi sifatida talqin etiladi. Bu modelda boshqaruvchi kompaniya ko'rsatilgan xizmatlari uchun bino mulkdorlaridan to'lov oladi, binoning uzluksiz ta'minoti va ekspluatatsiyasi bo'yicha javobgarlik esa uy-joy mulkdorlari uyushmasi zimmasida bo'ladi. Amalda eng muhim boshqaruv qarorlari — avvalo, moliyaviy boshqaruv hamda tovar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha shartnomalarni tuzish — uyushmaning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadi; boshqaruvchi esa ular uchun tahliliy tavsiyalar va asoslovchi materiallarni tayyorlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribani hisobga olgan holda, O'zbekistonda shirkat boshqaruvi va raisining roli ko'p jihatdan boshqa mamlakatlardagi uy-joy mulkdorlari uyushmalarining roliga o'xshash.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribalari har doim rivojlanadigan davlatlar uchun muhim hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlardagi uy-joy fondini boshqarish tizimi 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval. Xorijiy mamlakatlardagi uy-joy fondini boshqarish tizimi

№	Mamlakat nomi	Uy-joy fondini boshqarish tizimi
1.	AQSh	Aholi hududiy birlashmalari — Planning Unit Developments (PUD), kondominiumlar — Condominium Association
2.	Germaniya	Boshqaruvchi kompaniyalar
3.	Kanada	Uy-joy kooperativlari — Housing Cooperatives
4.	Fransiya	Sindikatlar — Syndicat
5.	Finlandiya	Kvartira aksiyadorlik jamiyatlari — Kvarternie aksionernie obshestva
6.	Rossiya	Uy-joy mulkdorlari shirkatlari va Uy-joy qurilishi kooperativlari — Tovarishstva sobstvennikov jilya (TSJ) i Jilishno-stroitelnie kooperativi (JSK)

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda xorijiy mamlakatlardagi uy-joy fondini boshqarish tizimi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida esa uy-joy fondini boshqarishda asosan boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan boshqarilib kelinadi. Lekin, ko'p kvartirali uylarni saqlash, joriy va kapital ta'mirlash ishlarini moliyalashtirishda davlat ishtiroki muhim o'rin tutmoqda. Bu holat tizimni bosqichma-bosqich xususiy va o'zini o'zi moliyalashtirish tamoyillariga o'tkazish jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi.

Uy-joy-kommunal xizmatlar bozori boshqaruv kompaniyalariga qat'iy talablar qo'yadi; ularga rioya qilinmasligi raqobat ustunliklarini yo'qotishga olib keladi. Eng avvalo, bu boshqaruvchi (kompaniya)ning xato yoki noo'rin harakatlari oqibatida mulkdorlarga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha o'zining fuqaroviy va moliyaviy javobgarligini sug'urtalash majburiyatiga tegishlidir.

Yevropa va Amerika mamlakatlarining aksariyatida boshqaruvchilar javobgarligini sug'urtalash keng tarqalgan. Ehtimol, O'zbekistonda ham qonunchilik bunday yondashuvni joriy etsa, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida sifat jihatdan o'zgarishlarga olib kelgan bo'lardi.

Bundan tashqari, boshqaruv kompaniyasining raqobat salohiyati uning kasbiy malakasi, amaliy tajribasi va moliyaviy barqarorligi, shuningdek uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi standartlarga qat'iy rioya etishini tasdiqlovchi sertifikatlar mavjud bo'lganda sezilarli oshadi.

Xorijiy tajribada boshqaruvchilar kasbiy uyushmalari turli yo'nalishlarda — dastlabki tayyorgarlikdan tortib malaka oshirishgacha — maxsus o'quv kurslarini tashkil etadi. Bunday dasturlar chuqur nazariy bilimlar va mustahkam amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uy-joylarni boshqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. G'arb mamlakatlarida esa ko'plab politexnika oliygohlari



hamda maxsus kollejlarda bitiruvchilarni boshqaruvchi sifatida faoliyat olib borish imkonini beruvchi asosiy ta'lim bilan ta'minlaydi. G'arb mamlakatlari qonunchiligida ko'chmas mulk boshqaruvchisiga yuqori talablar qo'yilgan. Germaniyada boshqaruvchi sifatida faoliyat yurituvchi shaxs oliy ma'lumotga ega bo'lishi, shuningdek iqtisod, muhandislik, yuridik yoki ijtimoiy soha bo'yicha mutaxassisligini tasdiqlovchi malakaga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, u muloqot olib borish, muzokaralar yuritish hamda nizolarni boshqarish kabi shaxsiy kompetensiyalarga ham ega bo'lishi talab etiladi.

Vengriya tajribasida esa "Uy-joy mulkdorlari uyushmalari to'g'risida"gi qonunga binoan, faqat maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar kondominium boshqaruvchisi bo'lish huquqiga ega. 1999-yildan boshlab "kondominium boshqaruvchisi" va "ko'chmas mulk boshqaruvchisi" yo'nalishlari bo'yicha ta'lim dasturlari davlat litsenziyasi asosida amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu dasturlar kasbiy standartlarga moslashtirilgan bo'lib, yakuniy imtihonlar Vengriya Ichki ishlar vazirligi talablari asosida tashkil etiladi.

Polsha tajribasiga murojaat qilinsa, sobiq sotsialistik mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida bozor tamoyillariga o'tilgan. Avvaliga 100 foiz davlat yoki shahar kapitaliga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyati tuzilib, barcha kommunal xizmatlar yagona kompaniya tarkibida jamlangan. Hozirgi kunda esa asosiy iqtisodiy va texnologik jarayonlar alohida biznes subyekti — xolding tomonidan amalga oshirilmoqda. Uning bosh maqsadi sifatli xizmat ko'rsatish va barcha obyektlarning uzluksiz faoliyatini ta'minlashdir.

Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni mustaqil faoliyat turi sifatida ajratish xorijiy tajribada professional boshqaruvchilar sonining ortishiga, raqobatbardosh boshqaruv xizmatlari bozorining shakllanishiga hamda uy-joy boshqaruvi sohasida kichik va yakka tartibdagi tadbirkorlikning rivojlanishiga olib keladi.

Masalan, Shvetsiyada ijarachilar harakati keng yo'lga qo'yilgan: ular uy-joy kommunal xizmatlarining sifati va tariflarini nazorat qiladi, davlat va mahalliy hokimiyat bilan hamkorlik qiladi hamda sudlarda o'z huquqlarini himoya qiladi. U yerda ijarachilar uyushmalari mavjud. A'zolari soni yuz mingga yetadigan bir nechta ijarachilar ittifoqlari va uyushmalari barcha siyosiy partiyalar hisobga oladigan ulkan kuchni tashkil etadi. Bunday uyushmalar o'z bosh qarorgohiga, mintaqaviy va mahalliy bo'limlarga ega.

Uy-joy harakatining asosiy maqsadi — ijarachilarning o'zlari yashaydigan uylarga oid to'g'ri qarorlar qabul qilishga qiziqishini oshirish va ularni bu jarayonga jalb etishdir. Buning uchun chet ellarda ikki xil model — „chegirma“ va „amortizatsiya“ modellari qo'llaniladi. „Chegirma“ modeli ijarachiga o'zi ehtiyoj sezgan xizmatlarni tanlash imkoniyatini beradi. Ijara haqi shunga muvofiq hisoblanadi. „Amortizatsiya“ modeliga ko'ra, uyingizga qanchalik ehtiyotkorona munosabatda bo'lsangiz, shuncha kam to'laysiz.

Shvetsiyada bu sohadagi muammolarni hal qilish uchun Uy-joy sudi tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda. Uning ish natijalari quyidagilardan iborat:

- barcha uy-joy kommunal xo'jaligi tuzilmalari faoliyati va tariflarining to'liq shaffofligi;
- korrupsiyaning yo'qligi;
- iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning idealga yaqin sifati;
- oddiy fuqarolarning monopolistlarga qarshi da'vo qo'zg'atish imkoniyati.

Xorijiy mamlakatlarda kommunal korxonalar, odatda, shahar xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha umumiy dasturlar doirasida va ommaviy mulkni xususiyashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda faoliyat olib boradi. So'nggi yillarda Fransiya, Finlyandiya, Vengriya, Slovakiya hamda Polsha hukumatlari davlat sektorini qayta tashkil etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish jarayonida ko'plab davlat korxonalarini "milliy mulk" sifatida emas, balki "milliy majburiyat" sifatida baholab, ularni raqobatbardosh sharoitda samarali daromad keltira oladigan xususiy sektorga o'tkazishni ma'qul ko'rgan.

Ta'kidlash joizki, xususiyashtirishning eng ommabop yo'li — barcha shahar xizmatlarini shartnoma asosida topshirishdir. Aksar xorijiy shaharlarda mahalliy ma'muriyat tarkibida shartnomalar bilan ishlashga ixtisoslashgan bo'limlar mavjud bo'lib, bu masalalar ularning vakolatiga kiradi.

Munitsipal mulk obyektlarini boshqarishda xo'jalik shartnomalarini oqilona tuzish orqali amalga oshiriladigan qisman xususiyashtirish shahar hokimiyatiga ayrim xizmatlarni o'z tasarrufida saqlash imkonini beradi, biroq ularning vakolati ommaviy hokimiyat maqomiga mos ravishda cheklangan bo'ladi. Bu jarayonda hokimiyat organlari ehtiyojlarni aniqlash, tovar va xizmatlarni xarid qilishga oid qarorlarni qabul qilish, pudratchilarning shartnoma shartlarini bajarishini nazorat qilish hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Ishlab chiqarishning bevosita jarayoni esa xususiy firmalarga topshirilib, tayyor mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishda ularning afzalliklaridan foydalaniladi.

Vengriya va Polsha tajribasiga ko'ra, munitsipal korxonalar uchun maxsus huquqiy shakllar — masalan, "munitsipalitet korxonasi" yoki "munitsipalitet boshqaradigan korxona" qo'llaniladi. Biroq bu tuzilmalar yetarli mustaqillikka ega emasligi, tadbirkorlik rag'batlarining sustligi hamda tashqi o'zgarishlarga moslashishdagi qiyinchiliklar bilan ajralib turadi.

Ana shunday salbiy holatlar, shuningdek davlat va munitsipal tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatini imkon qadar qisqartirishga intilishi natijasida Polshada ham, boshqa Yevropa mamlakatlarida ham tobora ko'proq



munitsipal korxonalar xo'jalik jamiyatlari – aksiyadorlik jamiyatlari yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –sifatida qayta tashkil etilmoqda. Asosiy mas'uliyat esa mustaqil, eng avvalo, xususiy tadbirkorlarga yuklatilmoqda. Bundan tashqari, ommaviy hokimiyat ishtirokidagi har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda korxonalar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish uchun kollegial organlar tuziladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa ommaviy mulk obyektlarini boshqarishda xususiy tashabbus, xususiy kapital va bozor raqobati imkoniyatlaridan keng foydalaniladigan moslashuvchan shakl va usullar qo'llaniladi.

Uy-joy fondini boshqarish bo'yicha xorij tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali tizim faqat kommunal xizmat ko'rsatish bilan cheklanmaydi. U huquqiy tartibga solish, mulkdorlar ishtirokini kuchaytirish, professional boshqaruvchi tashkilotlar, kapital ta'mir jamg'armalari, raqamli monitoring, energiya samaradorligi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida shakllanadi. BMTning Jeneva barqaror uy-joy xartiyasida uy-joy siyosati "munosib, yetarli, arzon va sog'lom uy-joy"ni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi ta'kidlanadi; uning asosiy tamoyillari ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy qamrov va aholi ishtirokidir. Ushbu xorijiy tajribalarni o'rgangan holda O'zbekistonda ko'p kvartirali uylarni boshqarishni milliy sharoitga moslashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur deb hisoblaymiz (2-jadval):

2-jadval. O'zbekistonda ko'p kvartirali uylarni boshqarishni xorijiy tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlari.

Mamlakat va qo'llanilayotgan model nomi	Boshqaruv tajribasining mazmuni	Milliy sharoitga moslashtirish imkoniyati
Germaniya – kondominium va mulkdorlar uyushmasi modeli	Germaniyada ko'p kvartirali uylar mulkdorlar huquqi va umumiy mulkni boshqarish tartibi maxsus qonun — <i>Wohnungseigentumsgesetz</i> orqali tartibga solinadi. Bu modelda umumiy mulkni saqlash, ta'mirlash va modernizatsiya qilish bo'yicha qarorlar mulkdorlar yig'ilishi va professional boshqaruvchi orqali amalga oshiriladi.	O'zbekistonda BSK va mulkdorlar umumiy yig'ilishi o'rtasidagi vakolatlarni aniqlashtirish, xizmat shartnomalarini standartlashtirish, umumiy mulk bo'yicha qaror qabul qilishda elektron ovoz berish tizimini joriy etish mumkin.
Finlyandiya – uy-joy kompaniyasi modeli	Finlyandiyada ko'p kvartirali uy ko'p hollarda "housing company" sifatida faoliyat yuritadi. Mulkdorlar kompaniya aksiyadorlari hisoblanadi, umumiy yig'ilishda boshqaruv kengashi saylanadi, ta'mirlash, moliyalashtirish va oylik to'lovlar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. To'lovlar miqdori ustavda belgilangan asoslar bo'yicha va umumiy yig'ilishda tasdiqlanadi.	Toshkent shahrida har bir ko'p kvartirali uy kesimida "kapital ta'mir jamg'armasi"ni shakllantirish, to'lovlarni uyning texnik holati, maydoni, energiya iste'moli va ta'mir ehtiyojiga qarab differentsiatsiya qilish maqsadga muvofiq.
Singapur – davlat boshqaruvi asosida tartibga solinadigan hayotiy sikl modeli	Singapurda HDB tizimi uy-joyni qurish, saqlash, modernizatsiya qilish va hududlarni yangilashni yagona davlat siyosati doirasida boshqaradi. Home Improvement Programme eskirayotgan uylarda umumiy texnik muammolarni bartaraf etishga, Neighbourhood Renewal Programme esa bir nechta hudud va bloklarni kompleks yaxshilashga qaratilgan.	Toshkentda "uy-joy fondi hayotiy davri" yondashuvini joriy etib, diagnostika, rejalashtirish, moliyalashtirish, ta'mirlash, monitoring, renovatsiya bosqichlarini yagona raqamli platformada boshqarish mumkin.
IHTT mamlakatlarida ijtimoiy uy-joy va arzon turar joy siyosati	IHTT ma'lumotlar bazasi mamlakatlarda uy-joy arzonligi, sifati va siyosat natijalarini baholash uchun qiyosiy axborot beradi. IHTT tahlillarida ijtimoiy ijara uy-joyi ko'p mamlakatlarda uy-joy bozoridagi bosimni yumshatish vositasi sifatida qaraladi.	O'zbekistonda kam daromadli aholi uchun manzilli subsidiyalar, ijtimoiy ijara uy-joylari va kapital ta'mir xarajatlarini qoplashda ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarur.
O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi	Jahon banki tahlillarida o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ko'p kvartirali uylar boshqaruvida mulkdorlar uyushmalari faolligi pastligi, huquqiy muhit va moliyaviy salohiyat yetishmasligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi.	O'zbekiston uchun faqat huquqiy asos yaratish yetarli emas; mulkdorlarning moliyaviy intizomi, boshqaruvchi tashkilotlar malakasi, elektron hisobot va majburiy monitoring tizimi birgalikda ishlashi kerak.



O'zbekistonda ko'p kvartirali uylarni boshqarishni xorijiy tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

Birinchidan, institutsional moslashtirish. Germaniya va Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, har bir ko'p kvartirali uyda mulkdorlar umumiy yig'ilishi, BSK, mahalliy hokimlik, bank va pudratchilar o'rtasida aniq javobgarlik taqsimoti belgilanishi lozim. Bu "kim qaror qabul qiladi, kim moliyalashtiradi, kim bajaradi, kim nazorat qiladi?" degan savollarga aniq javob beradi.

Ikkinchidan, moliyaviy moslashtirish. Finlyandiya modelidagi kabi kapital ta'mir va modernizasiya uchun alohida jamg'arma shakllantirish zarur. Bunda majburiy badallar uyning texnik eskirishi, lift, tom, fasad, muhandislik tarmoqlari, energiya sarfi va xavf darajasiga bog'liq bo'lishi kerak. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun esa manzilli subsidiyalar saqlanishi lozim.

Uchinchidan, raqamli moslashtirish. Singapur va Evropa tajribasidan kelib chiqib, Toshkent shahrida "uy-joy elektron pasporti"ni to'liq joriy etish maqsadga muvofiq. Unda har bir uy bo'yicha qurilgan yili, texnik eskirish darajasi, kapital ta'mir tarixi, to'lov intizomi, energiya iste'moli, avariya xavfi, BSK reytingi va aholi murojaatlari aks etishi kerak.

To'rtinchidan, hayotiy davr asosida boshqarish. Uy-joy fondini faqat joriy ta'mir nuqtai nazaridan emas, balki butun hayotiy davr bo'yicha boshqarish lozim: qurilish – ekspluatatsiya – diagnostika – kapital ta'mir – modernizasiya – rekonstruksiya – renovasiya. Bu yondashuv Toshkent shahrida eskirayotgan ko'p qavatli uylar uchun ayniqsa muhim.

Beshinchidan, mulkdorlar ishtirokini kuchaytirish. Joriy etilayotgan huquqiy me'yorlar va boshqaruv mexanizmlarining amaliy natijadorligi bevosita mulkdorlarning ushbu jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq. Tizimning barqaror ishlashi uchun uy-joy egalari boshqaruvdagi faolligini oshirish talab etiladi. Oltinchidan, energiya samaradorligi va renovasiya. Singapurning hududiy yangilash dasturlari va Evropa mamlakatlarining energiya samaradorligiga yo'naltirilgan ta'mirlash amaliyoti asosida Toshkentda uylarni energiya sarfi, issiqlik yo'qotishi, fasad holati va muhandislik tarmoqlari bo'yicha baholash kerak. Bu kapital ta'mir mablag'larini eng zarur ob'ektlarga yo'naltirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro amaliyot shuni tasdiqlaydiki, uy-joy fondini samarali boshqarish faqat kommunal xizmatlar bilan cheklanmaydi, balki huquqiy, moliyaviy, institutsional va raqamli mexanizmlarning yaxlit ishlashini talab etadi. O'zbekiston, xususan Toshkent shahri sharoitida boshqaruv tizimini yaxshilash uchun bir nechta ilg'or yondashuvlarni o'zaro birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Siz uy-joy fondini boshqarishda mulkdorlar majburiyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda Germaniya tajribasini asos qilib olishingiz mumkin. Shu bilan birga, Finlyandiyaning kapital ta'mir jamg'armalarini shakllantirish modeli uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Binolarni loyihalashdan tortib to'liq ta'mirlashgacha bo'lgan hayotiy davrini kuzatishda Singapur yondashuvini joriy etish kutilgan samarani beradi. Bunga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlarning ijtimoiy uy-joy siyosatini qo'shish orqali aholining himoyaga muhtoj qatlamlari qamrab olinadi. Bunday yaxlit yechim sizning turmush darajangizni oshirib, xizmatlar sifatini tubdan o'zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998-yil 24-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son Farmoni.
3. Н.В.Васильева. Жилищная сфера крупного города: проблемы управления и стратегия развития. – СПб: СИБГИЭУ, 2002.
4. Л.Г.Селютина Проблемы оптимизации структуры жилищного строительства в крупном городе в современных условиях. – СПб.: СПбГИЭУ, 2002.
5. Nurimbetov R.I., Davletov I.X., Salayev S.K., Mirzaxmedov B.X., Hasanov T.A. "O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TAQI, 2020.- 251 b.
6. T.A.Hasanov. O'zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish. 08.00.13 – «Menejment» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. T. 2019 y.
7. Салимова Ю.И. Мировые тенденции и сравнительная оценка политики урбанизации в зарубежных странах. Иқтимодий тараққиёт ва таҳлил. Илмий электрон журнали, 4-son aprel, 2024. www.e-itt.uz
8. O.Mamanazarov, A.Karimova. Issues of Improving the Financial State of Management Service Companies. (2025). International Journal of Scientific Trends, 4(8), 1-6. <https://scientifictrends.org/index.php/ijst/article/view/610>
9. D.Inoyatova. Information support in housing fund management. (2025). Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(5), 95-101. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/4166>
10. D.Inoyatova. Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. „Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot“ ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnalining, 2025 yil, № 4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5210>



11. D.Inoyatova. O'zbekistonda so'nggi yillarda uy-joy fondining o'sishi holati. "Innovations in technology and science education" scientific journal, Published in proceeding of 31th conference of "Prospects of development of science and education", APRIL 2025.
12. D.Inoyatova. Analysis of housing stock growth dynamics in uzbekistan in recent years. "Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences" International scientific-online conference, Great Britain, WOC, 2025 may <https://zenodo.org/records/15393349>
13. D.Sh.Inoyatova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi – 2025 y.
14. R.Nurimbetov, I.Davletov, K.Tashmuxamedova, A.Sultanov. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 2, mart-aprel, 2019 yil.
15. <https://unece.org/fileadmin/DAM/hlm/documents/Publications/good.practices.ee.housing.pdf>
16. <https://unece.org/fileadmin/DAM/hlm/documents/Publications/good.practices.ee.housing.pdf>
17. Kirsanov S.A. Zarubejnyy opyt upravleniya mnogokvartirnymi domami. JKX: jurnal rukovoditelya i glavnogo buxgaltera, №10, 2011.
18. Иваненко, Л. В. Зарубежный опыт эффективного управления многоквартирными домами / Л. В. Иваненко // Вестник УГУЭС. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика. – 2014. – № 1(7). – С. 146-150.
19. Akunina O.M. Zarubejnyy opyt gosudarstvennogo regulirovaniya vosproizvodstva jilishnogo fonda [Elektronnyy resurs] // politika, gosudarstvo i pravo. – 2015. - №3.
20. <https://lex.uz>
21. <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>